

MAVZU. DIAGNOSTIKA VA DIAGNOSTIKA METODLARI

Reja:

- 1. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning psixodiagnostikasi tushunchasi va maqsadi**
- 2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixodiagnostika jarayoni**
- 3. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning psixodiagnostika metodlari**

Tayanch so'z va iboralar: maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar, psixodiagnostika, kuzatuv, suhbat, adaptatsiya, o'yin metodikalar, proektiv metodikalar, testlar, diagnostika jarayoni, natijalar tahlili, xulosa tuzish.

O'quv natijalar:

1. Bilimlar.

- Psixologik diagnostikaning mohiyati, maqsadi va vazifalarini tushunadi.
- Diagnostikaning asosiy turlari (test, so'rovnoma, kuzatish, suhbat, eksperiment, proyektiv metodlar va b.) haqida bilimga ega bo'ladi.
- Har bir diagnostika turining afzalliklari, chegaralari va qo'llash sohalarini biladi.
- Ta'lim tizimida qo'llaniladigan raqamli diagnostika vositalari va platformalari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

2. Ko'nikmalar.

- Diagnostika metodlarini tanlash, qo'llash va natijalarni tahlil qilish bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qiladi.
- Olingan diagnostika natijalarini hujjatlashtirish va tahlil qilish asosida psixologik tavsiyalar ishlab chiqadi.
- Raqamli resurslar portalida ma'lumot qidirib topish, onlayn diagnostika testlaridan foydalanish va natijalarni yuklab olish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladi.

3. Kompetensiyalar.

- Tarbiyalanuvchilarning psixologik holatini aniqlash va monitoring qilishda mos diagnostika vositalarini tanlash kompetensiyasiga ega bo'ladi.
- Diagnostika jarayonini axborot texnologiyalari yordamida samarali tashkil etadi.
- Raqamli platformalar orqali to'plangan ma'lumotlardan tahliliy va amaliy maqsadlarda foydalana oladi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixodiagnostika tushunchasi tushunchasi va maqsadi

Psixologiya insonning ruhiyatini o'rganuvchi nazariy fan bo'lib qolmay, balki hozirgi kunda turli xil sohalarda keng qo'lanilishi mumkin bo'lgan amaliy fan hamdir. Insonni har tomonlama o'rganish, ya'ni odamlar o'rtasidagi individual farqlarni aniqlash ta'lim-tarbiya va mehnat faoliyati samaradorligini belgilaydi. Psixodiagnostika metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi psixologiyaning, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, amaliy psixologiyaning asosiy va eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan psixodiagnostikaning asoslarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixodiagnostika tushunchasi ta'rifiga turli yondashuvlarini uchratish mumkin. Rus psixologlari A.A.Bodalev va B.B.Stolin psixodiagnostika tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradilar: Psixodiagnostika - shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi. Psixolog Gurevich K.M. fikriga ko'ra, psixodiagnostika — insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilariga ko'ra tasniflash hamda farqlash metodlari haqidagi fan¹. R.S.Nemovning ta'kidlashicha, psixodiagnostika - bu maxsus bilimlarning shunday sohasi, u individ yoki guruh tomonidan erishilgan psixologik rivojlanish darajasi hamda psixik holat, xususiyatlarini aniq baholashning nazariyasi, metodologiya va metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Psixodiagnostika termini dastlab psixiatriyada G.Rorshaxning (1921-yil) shu nomli asari nashr etilgach keng qo'llanilib, tez orada tibbiyot sohasi

chegaralaridan chiqadi. "Diagnoz" termini normal taraqqiyotdan har qanday og'ish va uni aniqlash sifatida tushunila boshlandi. Psixologik diagnoz - ("diagnosis" grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) - shaxs individual-psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, ya'ni, prognoz qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixologik diagnostika amaliyotchi psixolog faoliyatining eng muhim sohalaridan biridir. Bu bolaning individual rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumot to'plash va ularning ruhiy holatini kuzatish imkonini beradi, ta'lim jarayoniga individual yondashuvni amalga oshirish va tuzatish va rivojlanish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixodiagnostikasi bolani butun maktabgacha bolalik davrida, oila kontekstida va bolalarni ta'lim maktabgacha tashkilotining ta'lim va rivojlanish muhitida psixologik o'rganish faoliyati sifatida belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning **psixodiagnostikasi** - bu tarbiyalanuvchilarni butun maktabgacha ta'lim tashkiloti davrida chuqur psixologik-pedagogik o'rganish, shaxsning individual xususiyatlari va moyilligini, ularning ta'lim va tarbiya jarayonida salohiyatini, shuningdek, o'rganishdagi nuqsonlarning sabablari va mexanizmlarini aniqlash jarayondir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixodiagnostikaning **maqsadi** bolaning individual xususiyatlarini, ularning ehtiyojlarini, moyilligini, qobiliyatlarini aniqlash va psixokorreksiya yordamini talab qiladigan rivojlanish qiyinchiliklarini tezda aniqlashdir.

Bolalarning individual yosh xususiyatlari, ularning aqliy rivojlanishidagi buzilishlar va og'ishlarning sabablari aniqlash bu psixologik diagnostikani predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bolalik – inson hayotdagi juda muhim davr. Insonning shaxsiyati, individualligi va ruhiy salomatligining asosiy fazilatlarini bolalik davrida

shakllanadi va rivojlanadi. Bolani qanday sharoit va muhitda psixologik rivojlanishi, uning kelajakda voyaga yetganda qanday inson bo'lib yetishishini belgilaydi.

Bolaning ichki dunyosining katta qismi tashqi kuzatuvchilarning ko'zidan yashiringan va shuning uchun ularning psixologik rivojlanishidagi buzilishlar ko'p hollarda hatto eng yaqinlari, masalan, oila va ta'lim muassasalari tomonidan ham sezilmaydi. Bolaning noto'g'ri psixologik rivojlanishining oqibatlari uning hozirgi va kelajakdagi hayotining barcha jabhalari uchun salbiy zarar etkazish mumkin.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasini o'rganuvchi olimlar bolalarda psixologik buzilishlarini oldini olish maqsadida muntazam ravishda psixologik diagnostikasini olib borilish zarurligini taqiqlaydi. Boladagi psixologik buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va psixokorreksion ishlarni olib borish ularning psixologik salomatligini saqlash garovidir.

Psixologik diagnostikaning asosiy prinsiplari:

- **Ilmiylik** – metodlar ilmiy asoslarga ega bo'lishi lozim.
- **Obyektivlik** – ma'lumotlar va xulosalar shaxsiy fikrlarga emas, faktlarga asoslanadi.
- **Individuallik** – har bir insonning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.
- **Maxfiylik** – diagnostika natijalari shaxsiy sir sifatida saqlanishi kerak.
- **Etika** – diagnostik jarayon inson manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Amaliy ahamiyati: Psixologik diagnostika quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

- Ta'lim (o'quvchilarning qobiliyatlarini o'rganish)
- Tibbiyot (psixologik kasalliklarni aniqlash)
- Kasbiy tanlov va yo'naltirish
- Oilaviy va shaxsiy masalalarda yordam

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixodiagnostika jarayoni

Psixologik diagnostika jarayonida shaxsning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, psixolog faoliyatining axloqiy jihatlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Diagnostika jarayonini halol, adolatli va professional tarzda o'tkazish uchun zarur bo'lgan qoidalar.

Maxfiylik

- Diagnostika jarayonida yig'ilgan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.
- Ma'lumotlarni boshqa shaxslarga oshkor qilish qat'iyan man etiladi, agar bu shaxsning o'z roziligi bilan bo'lmasa.
- Maxfiylik, ayniqsa, tibbiyot, ta'lim yoki oilaviy masalalarda muhim.

Shaxs manfaatlarini himoya qilish

- Psixologik diagnostika jarayonida shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga zarar yetkazilmasligi kerak.
- Diagnostika natijalari shaxsni kamsitishga yoki uning ijtimoiy obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.
- Psixolog har qanday sharoitda inson manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi.

Rozilik va ixtiyoriylik

- Diagnostika jarayonida qatnashish shaxsning ixtiyori bilan amalga oshiriladi.
- Diagnostika boshida psixolog shaxsga (yoki uning vakiliga) jarayonning maqsadi, usullari va natijalari haqida to'liq ma'lumot beradi.
- Hech kim majburlanib diagnostika jarayonida ishtirok etishi mumkin emas.

Obyektivlik va adolatlilik

- Diagnostika jarayonida psixolog shaxsiy fikr va hissiyotlardan xoli bo'lishi kerak.
- Xulosalar ilmiy dalillarga va diagnostika natijalariga asoslanadi, shaxsning jinsi, millati, diniy e'tiqodi yoki ijtimoiy mavqeiga ta'sir qilmaydi.

Maqsadga muvofiqlik

- Diagnostika faqat aniq belgilangan maqsad va vazifa doirasida amalga oshiriladi.
- Maqsadga bog'liq bo'lmagan ma'lumotlarni yig'ish yoki ulardan foydalanish noetik hisoblanadi.

Ilmiy asos va malakali yondashuv

- Diagnostikada faqat ilmiy jihatdan tasdiqlangan va ishonchli metodlardan foydalaniladi.
- Psixolog o'z malakasi va tajribasiga mos bo'lmagan usullarni qo'llamasligi kerak.
- Natijalar noto'g'ri talqin qilinmasligi uchun aniq va tushunarli shaklda taqdim etilishi lozim.

Ma'lumotlardan foydalanishning chegaralanishi

- Diagnostika natijalari faqat belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi.
- Ma'lumotlardan shaxsning zarariga ishlatilishi qat'iyan man etiladi.
- Shaxsning rozilgisiz diagnostika natijalari keng ommaga e'lon qilinmaydi.

Etik muammolarni oldindan hal qilish

- Agar diagnostika davomida shaxsning manfaatlariga zid bo'lgan qarama-qarshiliklar yuzaga kelsa, psixolog avvalo shaxs manfaatlarini himoya qilishi kerak.
- Diagnostika natijalari noto'g'ri talqin qilinishi yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish zarur.

Psixologning professional javobgarligi

- Psixolog o'z faoliyatida doimiy ravishda axloqiy va professional javobgarlikni his qilishi lozim.
- Har qanday vaziyatda shaxs manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak.

- Psixolog diagnostika natijalari va tavsiyalar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik diagnostikasi o'yin va proyektiv metodikalar, shuningdek kuzatish va suhbatlar orqali ularning aqliy va hissiy rivojlanishi va shaxsiy xususiyatlarini baholash uchun qo'llaniladi. Psixodiagnostika quyidagi bosqichlari: tayyorgarlik, moslashish (adaptatsiya), asosiy o'rganish va interpretatsiya (olingan natijalarni sharhlash) bosqichi. Psixodiagnostika jarayoni bolaning ehtiyojlari va muammolarini aniqlash, birlamchi tekshiruv va natijalarni sharhlashni o'z ichiga oladi.

Diagnostika jarayoni

- 1. Tayyorgarlik bosqichi:** Anamnez yig'ish (oilaviy, pedagogik, tibbiy).
- 2. Moslashuv (adaptatsiya) bosqichi:** bola bilan tanishish va ishonchli muhit yaratish.
- 3. Asosiy bosqich:** Tanlangan metodlardan foydalangan holda psixodiagnostik tekshiruv o'tkazish.
- 4. Interpretatsiya bosqichi:** Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va bolaning rivojlanishi haqida xulosa chiqarish.

Psixodiagnostika bolaning individual xususiyatlarini, ularning ehtiyojlarini, moyilligini, qobiliyatlarini o'z vaqtida rivojlanish qiyinchiliklarini aniqlash va psixokorreksiya ishlarini olib borish uchun o'tkaziladi/

Bolalik davrining asoslari yosh guruhlari bo'yicha bolalikni davrlashtirishni o'z ichiga oladi (go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha, maktab, o'smirlik va yoshlik davrlari) hamda har bir bosqichga xos fiziologik, psixik va 6 ijtimoiy xususiyatlarni qamrab oladi. Eng muhim jihatlar — rivojlanishning uzluksizligi, o'zgarishlarning sakrab kechishi (inqiroz davrlari), yangi yetakchi faoliyat turlarining paydo bo'lishi, nutq, tafakkur va shaxsning har bir yosh davrida rivojlanishidir. Bolalik davrining asosiy bosqichlari

- **Go'daklik (0–1 yosh):** Rivojlanish ko'krak suti bilan oziqlanishga bog'liq. Bola boshini ushlash, ag'darilish, emaklash va ilk qadamlarni qo'yishni o'rganadi.
- **Ilk bolalik (1–3 yosh):** Mustaqillik shakllanadi, nutq va yurish rivojlanadi, atrof-muhit faol o'yin orqali o'zlashtiriladi.
- **Maktabgacha davr (3–6/7 yosh):** Yetakchi faoliyat — o'yin. Fantaziya, mantiqiy fikrlash, tengdoshlar bilan muloqot rivojlanadi.

3. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning psixodiagnostika metodlari

Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik diagnostika metodlari — bu bolalarning psixologik holatini, rivojlanish darajasini, emotsional va kognitiv imkoniyatlarini aniqlash va ularga moslashgan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan psixologik metodlarning umumiy majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'zlarining psixologik rivojlanish bosqichlarida juda sezgir bo'lishadi, shuning uchun psixologik diagnostika bu yosh guruhining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasasida psixologik diagnostika metodlari, asosan, bolalarning psixologik salomatligini baholash, rivojlanishdagi kechikishlar yoki muammolarni aniqlash va pedagogik yondashuvlar orqali ularni hal qilishga yordam beradi. Bu metodlar nafaqat bolaning individual xususiyatlarini, balki uning jamiyat bilan munosabatlarini, o'zini tutish, o'yin faoliyati, o'rganish jarayonlarini ham tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Psixologik diagnostika metodlarining asosiy turlari:

1. Observatsiya (Kuzatish metodlari)

- Bolaning psixologik holatini, uning ijtimoiy faoliyatini, o'yinlardagi xatti-harakatlarini va boshqa faoliyatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bu metod bolaning tabiiy muhitida uning turmush tarzini va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini tushunishga yordam beradi.

2. Testlar va anketa so'rovnomalari

- **Psixologik testlar** bolalarning intellektual va emotsional rivojlanishini o'lchashda ishlatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus testlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular bolalarning e'tiborini, xotirasini, mantiqiy fikrlashini va boshqalarini o'lchaydi.
- **Suhbat metodi** tadqiqotchi va bolaning bevosita yoki bilvosita o'zaro muloqoti davomida birlamchi verbal axborot yig'ishga yo'naltirilgan metod. Suhbat metodi anketa yoki intervyu shaklida o'tkazilishi mumkin. Anketa yordamida suhbat o'tkazilganda bola yozma savollarga, intervyuda esa og'zaki savollarga javob qaytaradi.
- **Anketa so'rovnomalari** pedagoglarr va ota-onalarga bolalarning o'zini tutishi, ijtimoiy qobiliyatlari, uyda va jamiyatda o'zaro munosabatlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

3. Intervyu

- Psixolog va bola, shuningdek, uning ota-onalari bilan o'tkaziladigan suhbatlar orqali bolaning his-tuyg'ulari, qo'rquvlari, xavotirlari, ijtimoiy munosabatlari va boshqa psixologik jihatlarini aniqlash mumkin.

4. Proyektiv metodlar

- Bu metodlar, odatda, bolalarning ichki dunyosini, xayoliy va ijtimoiy jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Masalan, bolalarga tasvirlar yoki maxsus hikoyalar ko'rsatiladi va ular haqida qanday tasavvurlar bildirishlari so'raladi. Bu metodlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, qo'rquvlarini va istaklarini ochib beradi.

5. Loyihalash metodlari

- Bu metodda bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini va dunyoqarashlarini aks ettirish uchun turli faoliyatlarga (rasm chizish, o'yinlar) jalb qilinadi. Bolalar o'zlarini qanday his qilayotganini va qanday psixologik xususiyatlarga ega ekanligini loyihalar orqali ifodalashadi.

6. Biometrik va fiziologik o'lchovlar

- Ba'zi hollarda bolalarning psixologik holatini baholashda biometrik usullar (masalan, yurak urish tezligini o'lchash, terlash va boshqa fiziologik reaksiyalarni kuzatish) qo'llanilishi mumkin. Bu metodlar, ayniqsa, bolada psixologik stress yoki xavotirni aniqlashda foydali bo'ladi.

7. O'yin terapiyasi

- Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin terapevtik vosita sifatida ishlatiladi. O'yin orqali bolalar o'z hissiyotlarini, qo'rquvlarini, shuningdek, o'zgarishlarga bo'lgan reaksiyalarini namoyon qiladilar. Psixolog o'yin faoliyatini kuzatib, boladagi psixologik holatni aniqlaydi va unga mos yondashuvni ishlab chiqadi.

8. Metodlar yordamida kuzatish va tahlil qilish


- Psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik diagnostikasi jarayonida turli metodlarni birgalikda qo'llashadi. Bu metodlar bolalarning individual ehtiyojlariga qarab tahlil qilinadi, va diagnostik ma'lumotlar asosida ularga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlar taklif etiladi.

Psixologik diagnostika metodlarining maqsadi:

- Bolaning psixologik rivojlanishini o'lchash.
- Bola va uning atrofidagi muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlash.
- O'zgartirishlar va pedagogik yondashuvlarni rejalashtirish.
- Xavotir, qo'rquv yoki boshqa psixologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish.
- Bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.
- **Bolalar psixodiagnostikasida kuzatish metodi.**


Kuzatish metodi- har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lib, uning yordamida bolalarning turli xil psixologik xususiyatlari o'rganiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodagnostikasining asosiy metodlaridan biri kuzatish metodi.



Obyektiv kuzatish-- har doim ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lib, uning yordamida bolalarning turli psixik protsesslari hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari o'rganiladi.

Obyektiv kuzatish metodi quyidagi qoidalarga asosanib tashkil qilinishi kerak:



Sub'yektiv kuzatish--o'z-o'zini kuzatish hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodagnostikasida sub'yektiv kuzatish o'z-o'zini kuzatishdan juda kam foydalaniladi. Kuzatish metodidan foydalanilganda bolalar turli o'yin faoliyatlari, didaktik mashg'ulotlar, mehnat faoliyatlarida xilma-xil psixik va yakka xususiyatning namoyon bo'lishini o'rganish mumkin. Kuzatish metodi uzluksiz yoki faoliyatni tanlab vaqti-vaqti bilan o'tkazilishi mumkin.² Bolalarni uzluksiz kuzatish metodi bilan o'rganilganda, ularning barcha fe'l-atvorlari va xatti-harakatlari kundalik faoliyatlari davomida kompleks xolda o'rganiladi.

Kuzatish-adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadigan jarayon. Kuzatishda tadqiqotchi ma'lum hodisani, maqsadni ko'zlab tashkil etadi. Tadqiqotchi kuzatishga oldindan puxta tayyorlanadi, kuzatishdan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlaydi, uning dastur va rejalari tuziladi, kuzatish manzili, muddati belgilanadi. Kuzatish ikki turga asoslanib kuzatiladi:

Qisqa va uzoq muddatli kuzatish;

Uzoq muddatli kuzatish;

Qisqa kuzatish deganda-obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish tushuniladi.

Uzoq muddatli kuzatish esa maqsad-reja asosida olib boriladi va ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelish tushuniladi. Kuzatish yakunlarini qayd qilishda kino, video yozuvi, televideniya va boshqa texnikaviy vositalardan foydalanish mumkin.

Kuzatishni amalga oshirayotgan tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalarni tez qayd eta olish mahoratiga ega bo'lishi zarur. Kuzatish metodining asosiy kamchiligi shundaki, unda kuzatilayotgan hodisalarga faol ta'sir ko'rsatish, ularni o'zgartirish kuzatish amalga oshirilgan vaziyatni xuddi shunday ko'rinishda qaytadan yaratish imkonidir. Shunga qaramay bu metod asosiy metodlardan biri hisoblanadi.

² Z.Nishanova, Z.durbonova, S.Abdiyev, Sh.Tulaganova Psixodagnostika - T., 2008 y

Maktabgacha ta'limda xodimlar va ota onalar o'rtasida test va anonim so'rovnomalar o'tkazish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostikasida suhbat metodidan keng foydalaniladi. Bu metodni 5-6 yoshli bolalarga nisbatan qo'llash mumkin. Bunda bolalarga turli mavzularga doir savollar beriladi. Suhbat paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan yaxshilab o'ylab olinadi. Suhbat jarayonida javoblarni yozib olib, keyinchalik javoblarni tahlil qilish mumkin.

Suhbat metodi tadqiqotchi va bolaning bevosita yoki bilvosita o'zaro muloqoti davomida birlamchi verbal axborot yig'ishga yo'naltirilgan metod. Suhbat metodi anketa yoki intervyu shaklida o'tkazilishi mumkin. Anketa yordamida suhbat o'tkazilganda bola yozma savollarga, intervyuda esa og'zaki savollarga javob qaytaradi.

Suhbat metodida beriladigan savollar bir-biridan alohida va ajralgan emas, ular yaxlit bir zanjirli halqalaridir. So'rovdagi bir savol keyingisi bilan bog'liq holda idrok etiladi.

1. Bir savol va unga beriladigan javob keyingi savollarga beriladigan javoblarga ta'sir o'tkazmasligi kerak.

2. Muayyan savoldan keyingi savol umuman boshqa mavzularga o'tib ketgan bo'lmasligi, bir savoldan boshqasiga o'tishda mavzu keskin o'zgartirilmasligi lozim.

3. Savollarning tashqi ifodalanishi bolalarni u bilan ishlashga jalb eta olishi kerak (simmetrik to'g'ri bo'lishi og'zaki murojaat orqali beriladigan savollar chiroyli va tushunarli bo'lishi zarur).

4. Bolalarning individual xususiyatlari va so'rovning uzunligi bir-biriga mos bo'lishi zarur.

5. So'rov so'ngida bolaga minnatdorchilik va tashakkur izhor etilishi- "Javoblaringiz uchun tashakkur", "Yordamingiz uchun katta rahmat aytish maqsadga muvofiq."³

³ Nishanova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. - T., 2004 y

Suhbat metodini o'tkazishda quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

- ❖ Suhbatning mavzusi va mazmuni bolalarning taraqqiyot darajalariga va yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.
- ❖ Savollar rejali va maqsad asosida tuzilishi kerak.
- ❖ Suhbat paytida «ha» yoki «yo'q» demay, tuliq javob olish kerak.
- ❖ Suhbatni haddan tashqari cho'zib yubormaslik kerak.

Suhbat orqali bolalarning bilishlari, narsa va hodisalar haqida tasavvurlari, qiziqishlari va odamlar bilan bo'lgan munosabatlarni o'rganish mumkin.

2. Maktabgacha ta'limda xodimlar va ota-onalar o'rtasida test va anonim so'rovnomalar o'tkazish — bu maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar rivojlanishini yaxshilash va ularning psixologik, pedagogik ehtiyojlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlardir. Bu usullar xodimlar (pedagoglar, psixologlar, boshqaruvchilar) va ota-onalar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga yordam beradi. Testlar va anonim so'rovnomalar xodimlar va ota-onalarning fikrlarini, his-tuyg'ularini, ehtiyojlarini va bolalar bilan bog'liq muammolarni tushunishga yordam beradi.

1. Testlar o'tkazish

Testlar — bu ma'lum bir mavzuga oid savollardan iborat vositadir, ularning yordamida xodimlarning yoki ota-onalarning psixologik holati, bolalar bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, o'quv jarayoni va boshqa muhim masalalar haqida ma'lumot yig'iladi.

Test o'tkazishning maqsadi:

- Xodimlar va ota-onalarning o'zaro muloqotini va hamkorlik darajasini o'lchash.
- Ota-onalar va pedagoglarning bolalar rivojlanishiga oid bilimlarini aniqlash.
- Maktabgacha ta'limda yuzaga kelgan muammolarni (masalan, bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi, psixologik salomatligi) aniqlash.
- Pedagogik yondashuvlar va o'qituvchilarning ish faoliyatini baholash.

Testlarning turlari:

- **Pedagogik testlar:** Pedagoglarning bilim darajasini o'lchash, o'qitish metodikalariga oid so'rovlar.
- **Psixologik testlar:** Xodimlarning va ota-onalarning psixologik holatini baholashga qaratilgan.
- **Ijtimoiy adaptatsiya testlari:** Ota-onalar va xodimlarning bolalar bilan aloqalarini o'rganish.

Testlar o'tkazishning jarayoni:

1. **Maqsadni belgilash:** Testlarni o'tkazishdan oldin aniq maqsadni belgilash zarur, masalan, ota-onalarning bolalar tarbiyasiga oid bilimlarini o'lchash yoki xodimlarning psixologik holatini tekshirish.
2. **Test savollarini ishlab chiqish:** Testlar bolalarning rivojlanishiga, ta'lim jarayoniga, o'qituvchilarning metodikalariga, ota-onalarning tarbiya usullariga oid bo'ladi.
3. **Testlarni o'tkazish:** Xodimlar va ota-onalarga testlar taqdim etiladi. Testlar aniq va tushunarli bo'lishi, ularga javob berish uchun vaqt cheklavlari bo'lmasligi kerak.
4. **Natijalarni tahlil qilish:** Test natijalari tahlil qilinadi va ularning asosida kerakli choralar va takliflar ishlab chiqiladi.

2. Anonim so'rovnomalar

Anonim so'rovnomalar xodimlar va ota-onalar o'rtasidagi fikr-mulohazalarni to'plashning samarali usulidir. So'rovnomalar anonim tarzda amalga oshiriladi, bu esa ishtirokchilarning o'z fikrlarini erkin va xolisona ifodalashiga yordam beradi.

Anonim so'rovnomalar o'tkazishning maqsadi:

- Xodimlar va ota-onalarning fikrlarini va ehtiyojlarini tushunish.
- Ta'lim jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini topish.

- Maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyatini baholash, xodimlar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash.

So'rovnomalar turlari:

- **Pedagogik so'rovnomalar:** Xodimlarning o'qitish metodikalariga, bolalar bilan ishlash usullariga oid so'rovlar.
- **Ijtimoiy so'rovnomalar:** Xodimlar va ota-onalarning ijtimoiy muhitga moslashish darajasi, muloqot qobiliyatlari haqida ma'lumot olish.
- **Psixologik so'rovnomalar:** Ota-onalar va pedagoglarning psixologik holati, bolalar bilan aloqalari haqidagi fikrlar.

So'rovnomalarni o'tkazish jarayoni:

1. **Maqsadni aniqlash:** So'rovnomani o'tkazishdan oldin nima maqsadda amalga oshirilishi kerakligini belgilash zarur. Masalan, pedagoglarning ish faoliyatini baholash yoki ota-onalarning bolalar tarbiyasiga oid qarashlarini o'rganish.
2. **So'rovnomani ishlab chiqish:** So'rovnoma savollarini ishlab chiqish jarayonida ular aniq, tushunarli va qisqa bo'lishi kerak. Shuningdek, anonimlikni ta'minlash uchun shaxsiy ma'lumotlarni so'ramaslik zarur.
3. **So'rovnomani o'tkazish:** Ota-onalar yoki xodimlarga so'rovnoma taqdim etiladi. Ularni to'ldirish uchun o'z vaqtida qulay imkoniyat yaratish kerak.
4. **Natijalarni tahlil qilish:** So'rovnoma natijalari yig'ilib, tahlil qilinadi. Ularning asosida ta'lim jarayonini yaxshilash va muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

3. Foydasi

- **Xodimlar va ota-onalar o'rtasida aloqalarni mustahkamlash:** Testlar va so'rovnomalar orqali o'rtadagi fikr-mulohazalarni oshirish va samarali kommunikatsiya o'rnatish mumkin.
- **Bolalar rivojlanishini yaxshilash:** Xodimlar va ota-onalarning fikrlarini o'rganish orqali bolalar uchun yanada samarali ta'lim va tarbiya usullarini joriy etish mumkin.

• **Muammolarni aniqlash va bartaraf etish:** Maktabgacha ta'limda yuzaga kelgan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostikasidagi test metodi:

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostikasida so'nggi yillarda test metodi qo'llanila boshlandi. Test so'zi inglizcha bo'lib, o'lchash degan ma'noni bildiradi. Test metodi orqali bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari va ayrim psixik protsesslarining (tafakkur, xayol, xotira) qanchalik rivojlanganlik darajasi aniqlab taqqoslanadi. Test metodi yordami bilan bolalarning o'z yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganliklarini ham aniqlash mumkin. Qo'llaniladigan testlar orasida intellektual testlar deb ataladigan testlar katta ahamiyatga ega. Intellektual testlar–bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari aniqlanadi. Test vazifalari bolalarning o'yin faoliyatlari bilan bog'lansa, bolalar bunday vazifalarni bajonu dil bajaradilar. Masalan: biron butun narsaning mayda bo'laklarga ajratib tashlangan qismlarini birlashtirish, mayda bo'lakchalardan murakkab va chiroyli animatsiyalar yasay olish, turli labirintli suratlardan to'g'ri yo'lni topa bilish vazifalaridan foydalanish mumkin.⁴

Masalan: test metodida bolalarga topshiriladigan vazifalar bir necha variantda bo'lib, ular kuchlari yetgan variantlardagi vazifalarni bajaradilar. Har bir bajarilgan vazifaga ball sestimasida baho qo'yib boriladi. Vazifalardan qanchasini bajarganligi va to'plagan baliga qarab, bolalarning o'rtiqcha taraqqiyot darajasi belgilanadi, aniqlanadi.

Psixodiagnostika metodikalar

Proyektiv metodikalar:

- "Uy - Daraxt - Shaxs": bolaning shaxsiy xususiyatlari va hissiy holatini baholash imkonini beradi.
- "Mavjud bo'lmagan hayvon": bolaning fikrlash va obrazli tafakkurini baholashga qaratilgan.

⁴ Nishanova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. - T., 2004 y

- Rang-rasm testlari: hissiy fon va shaxsiy xususiyatlarni aks ettiradi.

O'yinga asoslangan usullar:

- Kublar, piramidalar va rasmlar bilan o'yinlar: Xotira, diqqat va fikrlashni o'rganish uchun ishlatiladi.

Korrektur testlar - bolaning diqqat darajasini va asosiy harakatlarni bajarish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.

Kuzatish va suhbatlar:

- Kuzatish: tabiiy sharoitlarda bolaning aqliy jarayonlar, muloqot qobiliyatlari va mustaqillik rivojlanishini kuzatish imkonini beruvchi yetakchi usul.

- Suhbatlar: bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari, o'yin shakllari va boshqalar bilan munosabatlarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Mantiq va diqqat testlar:

- "Bema'nolik" testi - bolaning tasvirlardagi mantiqiy nomuvofiqliklarni aniqlash va tushuntirish qobiliyatini baholaydi.
- Eshitish xotirasi aniqlash testlar - og'zaki topshiriqlar yordamida eshitish xotirasining rivojlanishini o'rganiladi.

Diagnostic eraklar: boladagi muammolarni yoki uning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, agar bola asosan qo'rqqoq qahramon ishtirok etgan eraklarni yoqtirsa, bu uning uyaluvchanligi va xavotir darajasi yuqoriligini ko'rsatishi mumkin. Bunday erak bolaning o'zi aytolmaydigan yoki aytishni istamaydigan holatlarini ham aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Nishanova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. - T., 2004 y
2. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T. TDPU 2017-yil
3. Nishanova, Z.Qurbonova, S.Abdiev Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya; O 'z R Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: «Tafakkur-Bo'stoni». 2011. 304 bet
4. Salayeva.L. Sa'dullayeva.M Bolalar psixologiyasidagi muammolar va ularni bartaraf etish usullari. – T.,Uslubiy qo'llanma 2021 y
5. Развитие социальных эмоций у детей дошкольного возраста/ Под ред. А.В.Запорожца, Я.З.Неверович. – М., 1986.
6. Развитие личности ребенка: пер. с англ. - М., 1987.
7. Чистякова М.И. Психогимнастика / Под ред. М.И. Буянова. -- 2-е изд. - М.: Просвещение: ВЛАДОС, 1995.
8. Немов Р.С.Психология: Учеб.для студ.высш.пед.учеб.заведений: В 3 кн. – 3 е изд. – М.: Гуманитар.изд.центр ВЛАДОС, 1999. – Кн. 3. Психодиагностика. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики.
9. Sobirova.D.G', Rejametova I.I,Tadiyeva S.X, Madjidova D.A. Bolalar ruhiyatiga psixologik-pedagogik yondashish yo'llari – T., 2008-y.
10. Ahmedova.Z. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqiy psixogimnastika va logoritmika - T., 2018-y.
11. Z.Nishanova, G.Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi –T., 2006-y.
12. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari.- T., "O'qituvchi", 2000-y.
13. Z.Nishanova, Zdurbonova, S.Abdiyev, Sh.Tulaganova Psixodiagnostika - T., 2008 y
14. Ibodullayev.Z Asab va ruhiyat - T., 2012 y
15. Ahmedova.Z. Kiik bolalardagi katta qo'rquvlar - T., 2018-y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Анастаси А. Психологическое тестирование: В. 2 кн Пер. с англ. / Под ред. К.М. Гуревича, В.И.Лубовского. - М.П едагогика, 1982
2. Немов Р.С.Психология: Учеб.для студ.высш.пед.учеб.заведений: В 3 кн. – 3 е изд. – М.: Гуманитар.изд.центр ВЛАДОС, 1999. – Кн. 3. Психодиагностика. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики.
3. Борулава Г.А. Психодиагностика умственного развития учащихся: учебное пособие. Новосибирск. 1990.

4.

PSIXOLOGIK METODIKALAR

6–7 YOSHLI BOLALAR GURUHI (TAYYORLOV BOSQICHI)

PSIXODIAGNOSTIKASI

1. “Uy – daraxt – odam” metodikasi (UDO) Maqsad: bolaning emotsional holatini, “Men-obraz”ini, o‘zini baholashini va tafakkur xususiyatlarini aniqlash. Qanday o‘tkaziladi: bola navbat bilan uy, daraxt va odamni chizadi. Muhimi, katta yoshli kishi aralashmasligi lozim. Izoh: • Uy — oilaviy munosabatlar, xavfsizlik hissinı anglatadi. • Daraxt — hayotiy kuchlar, kayfiyat, emotsional fonni anglatadi. • Odam — o‘zini anglash, xavotir va ochiqlikni ko‘rsatadi. Metodika proyektiv bo‘lib, rasm tahlili qator mezonlar (o‘lcham, joylashuv, chiziqlar, detallar mavjudligi va h.k.) asosida amalga oshiriladi.

2. “Zina” testi (A.M. Prixojan) Maqsad: bolaning o‘zini baholash darajasini aniqlash. Qanday o‘tkaziladi: 7 pog‘onali zina chiziladi. Eng yuqori — “eng yaxshi bolalar”, eng pastı — “ko‘p xato qiladiganlar”. Boladan o‘zini, so‘ngra boshqalarnı (onasi, do‘sti, tarbiyachisi) qo‘yish so‘raladi. Izoh: bolaning o‘zini baholashi, o‘ziga ishonchi va boshqalarning ma‘qulloviga intilish darajasini ko‘rsatadi. 3. “Qo‘rquvlar xaritasi” testi (A.I. Zaxarov metodikasi) Maqsad: xavotir darajasi va bolalar qo‘rquvlarini aniqlash. Qanday o‘tkaziladi: bolaga turli vaziyatlar o‘qib eshittiriladi (masalan, qorong‘idan qo‘rqasanmi, yolg‘iz qolishdan, yomon itdan va h.k.). Bola qo‘rqish qo‘rqmasligini aytadi. Rasmlardan ham foydalanish mumkin. Izoh: qo‘rquvning turi (real yoki fantaziya) va xavotir darajasi aniqlanadi. Xavotirga moyil bolalar bilan ishda ko‘p qo‘llaniladi.

4. “Men qandayman?” metodikasi (L.F. Obuxova bo‘yicha) Maqsad: bolaning o‘z-o‘zini tasavvur qilishi va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash. Qanday o‘tkaziladi: bolaga quyidagi jummalarnı tugatish topshiriladi: – Men yaxshi ko‘raman... – Men qila olaman... – Men xohlayman... – Men qo‘rqaman... – Men

yomon bo'laman, agar... Izoh: bolaning o'zini anglashi, o'zini baholashi va ichki qiyinchiliklarini tushunish imkonini beradi.

5. Tafakkur rivojlanishini diagnostika qilish (A.R. Luriya, V.I. Lyubovskiy bo'yicha) Maqsad: mantiqiy va ko'rgazmali-amaliy tafakkur darajasini baholash. Qanday o'tkaziladi: bolaga klassifikatsiya, sabab-oqibat bog'lanishini aniqlash, ajratish (o'lchami yoki vaqtiga ko'ra joylashtirish) kabi topshiriqlar beriladi. Izoh: maktabga tayyorgarlikni baholashda, PRK yoki intellektual iste'dodlilikni aniqlashda muhim.

6. "Qo'lqop" metodikasi (yoki "Kim qayerda yashaydi?") Maqsad: nutq rivojlanishini, mantiqiy tafakkur va diqqatni baholash. Qanday o'tkaziladi: bolaga ertak asosida qo'lqop va unda "joylashgan" hayvonlar tasvirlanadi. Boladan ularni eslab, ketma-ket aytishi va nega kimdir joylashmaganini izohlashi so'raladi. Izoh: xotira, izchillik, mantiqiy tafakkur va nutq xususiyatlarini aniqlaydi.

7. "Oila rasmi" metodikasi Maqsad: oilaviy munosabatlar, pozitsiyalar va emotsional muhitni aniqlash. Qanday o'tkaziladi: bolaga oilasini chizish topshiriladi. Keyin savollar beriladi: – Bu kim? – Eng mehribon kim? – Sen ko'proq kim bilan o'ynaysan? Izoh: oilaviy munosabatlarning proyektiv tasviri, yashirin ziddiyat yoki xavotir kechinmalarini ko'rsatishi mumkin. 8. Ixtiyoriylik diagnostikasi (L.A. Venger "Xochiklar" metodikasi) Maqsad: bolaning ixtiyoriy xulq-atvor shakllanganlik darajasini o'rganish. Qanday o'tkaziladi: bolaga nuqtalar tushirilgan qog'oz beriladi. U faqat qora nuqtalarga belgi qo'yishi kerak (oq nuqtalarga mumkin emas). Psixolog xato va diqqat barqarorligini kuzatadi. Izoh: DEGS va o'zini nazorat qilishda muammolari bor bolalar bilan ishda samarali. Muhim: Barcha metodikalar xavfsiz va sokin muhitda, o'yin shaklida o'tkazilishi kerak. Tahlil professional bilim talab etadi va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi shart. To'liq tasavvur uchun kompleks diagnostika (kuzatuv, ota-onalar bilan suhbat va test metodikalari) qo'llaniladi.

6 YOSHLI BOLALARNING BILISH JARAYONLARINI ANIQLASH UCHUN METODIKALAR

Baholash 3 ballik tizimda bo'ladi:

3 ball – to'liq, aniq, mustaqil bajarilgan

2 ball – qisman, kichik xatolar bilan

1 ball – topshiriqni bajara olmagan yoki yordam bilan bajargan

1. Idrok (sezgi va qabul qilish)

1. "Ortib qolgan narsani top"-Bola oldiga 4 ta predmet rasmi qo'yiladi (masalan: olma, gilos, nok, mashina).

Vazifa: "Qaysi biri boshqa, nima uchun?"

Baholash:

3 ball – ortiqchasini aniq topib, sababini aytadi.

2 ball – ortiqchasini topadi, lekin sababni tushuntira olmaydi.

1 ball – ortiqchasini topa olmaydi.

2. "Katta-kichik"

Bola oldiga turli kattalikdagi shakllar (masalan, katta va kichik doira) qo'yiladi.

Vazifa: "Qaysi biri katta, qaysi biri kichik?"

Baholash:

3 – hammasini to'g'ri,

2 – 1-2 ta xato,

1 – farqlay olmaydi.

3. "Kim yo'q?"

5 ta predmet (mashina, qalam, kitob, olma, soat) ko'rsatiladi, so'ngra 1 tasi olib qo'yiladi.

Vazifa: "Qaysi narsa yo'qoldi?"

Baholash:

3 – hammasini to'g'ri aytadi,

2 – 1-2 marta chalkashadi,

1 – eslay olmaydi.

4. "Qaysi rasm boshqa?"

4 ta geometrik shakl ko'rsatiladi (3 ta doira, 1 ta uchburchak).

Vazifa: "Qaysi biri boshqacha?"

Baholash:

3 – to'g'ri topadi,

2 – ikkilanib javob beradi,

1 – xato qiladi.

5. "Tezkor top"

Stolga 5-6 xil rangli kartochkalar qo'yiladi.

Tarbiyachi: "Tezda ko'k rangni ko'rsat!" deydi.

Baholash:

3 – darhol to'g'ri ko'rsatadi,

- 2 – kechikib yoki yordam bilan topadi,
- 1 – xato qiladi.

2. Xotira

1. “So‘zlarni eslab qol”

Tarbiyachi 5 ta so‘z aytadi (olma, kitob, qush, stol, oy).

Bola takrorlaydi.

Baholash:

3 – 5 so‘z to‘liq,

2 – 3–4 so‘z,

1 – 1–2 so‘z.

2. “Rasmlarni eslab qol”

6 ta rasm (it, mushuk, quyon, baliq, qush, sigir) ko‘rsatiladi, usti yopiladi.

Bola eslab aytadi.

Baholash:

3 – hammasini aytadi,

2 – 3–4 ta,

1 – 1–2 ta.

3. “Ketma-ketlikni esla”

Tarbiyachi 3–4 harakat qiladi: qo‘l ko‘tarish, chapak, sakrash. Bola shu ketma-ketlikni takrorlaydi.

Baholash:

3 – to‘liq,

2 – 1–2 xato,

1 – bajara olmaydi.

4. “Qisqa hikoya”

Tarbiyachi kichik hikoya aytadi (masalan, “Ali bog‘da olma uzdi, ularni savatga soldi”).

Bola qayta hikoya qiladi.

Baholash:

3 – mazmunini to‘liq aytadi,

2 – asosiy qismini aytadi,

1 – deyarli eslamaydi.

5. “Shaklni eslab chiz”

Qog‘ozda uchburchak va doira ko‘rsatiladi, yopiladi. Bola chizib beradi.

Baholash: 3 – to‘g‘ri chizadi,

2 – 1 ta shaklni chizadi,

1 – chizmaydi/yomon chizadi.

3. Tafakkur

1. “Ortib qolganini top”

Rasm: olma, banan, nok, qalam. Bola “Qalam boshqa” deb aytishi kerak.

Baholash:

- 3 – to'g'ri va sababini aytadi,
- 2 – to'g'ri aytadi, sabab yo'q,
- 1 – xato.

2. "O'xshashini top"

Masalan: qush – samolyot. Bola: "Ikkalasi uchadi".

Baholash:

- 3 – to'liq javob,
- 2 – javob bor lekin aniq emas,
- 1 – topa olmaydi.

3. "Ketma-ketlikni davom ettir"

Shakllar: doira, uchburchak, doira, uchburchak ... Bola davom ettiradi.

Baholash:

- 3 – ketma-ket to'g'ri davom ettiradi,
- 2 – 1-2 xato,
- 1 – davom ettira olmaydi.

4. "Nima uchun?"

Savol: "Nega odamlar non yeydi?" Bola: "Chunki odamga ovqat kerak".

Baholash: 3 – to'g'ri sabab,

- 2 – qisman,
- 1 – javob bermaydi.

5. "To'ldir"

Gap: "Qishda qor bo'lsa, yozda ... bo'ladi". Bola: "Issiq bo'ladi".

Baholash:

- 3 – to'g'ri to'ldiradi,
- 2 – noto'liq,
- 1 – noto'g'ri.

4.Diqqat

1. "Top va chiz"

Rasmda ko'p predmetlar ichidan "faqat 3 ta mushukni topib chizib qo'y" deyish.

Baholash:

- 3 – hammasini topadi,
- 2 – 1-2 xato,
- 1 – topa olmaydi.

2. "Chiziqlarni kuzat"

3 ta chiziq chizilgan, har biri boshqa predmetga boradi. Bola chiziqni kuzatib, qaysi chiziq qaysi predmetga olib borganini aytadi.

Baholash:

- 3 – hammasini to'g'ri,
- 2 – 1-2 xato,
- 1 – bajara olmaydi.

3. “Farqni top”

Ikki rasm ko'rsatiladi, 5 ta farqni topishi kerak.

Baholash:

3 – hammasini topadi,

2 – 3–4 ta,

1 – 1–2 ta.

4. “Ortiqchasini o'chir”

20 ta raqam ichida faqat “3” raqamini chizib qo'yish vazifasi beriladi.

Baholash:

3 – hammasini to'g'ri,

2 – 1–2 ta xato,

1 – ko'p xato.

5. “Sanoqni davom ettir”

Tarbiyachi: “1, 2, 3 ...” deydi, bola davom ettiradi.

Baholash:

3 – uzluksiz to'g'ri sanaydi,

2 – 1–2 ta xato,

1 – chalkashib ketadi.

5. Tasavvur

1. “Nimaga o'xshaydi?”

Tarbiyachi qog'ozga egri chiziq chizadi. Bola: “Bu ilonga o'xshaydi” deydi.

Baholash:

3 – qiziqarli va to'g'ri,

2 – oddiy,

1 – ayta olmaydi.

2. “Rasmni davom ettir”

Yarim doira chiziladi. Bola uni to'ldiradi (masalan, quyosh).

Baholash:

3 – mazmunli tugatadi,

2 – oddiy,

1 – tugatmaydi.

3. “Sehrli predmet”

Tarbiyachi qalamni ko'rsatadi: “Bu sehrli tayoq bo'lsa nima qilardi?” Bola javob beradi.

Baholash:

3 – ijodkorlik bilan,

2 – oddiy,

1 – javobsiz.

4. “Hikoya to'qish”

2–3 ta rasm beriladi (qush, daraxt, bola). Bola ulardan kichik hikoya tuzadi.

Baholash:

3 – bog'langan hikoya,

2 – qisqa,

1 – ayta olmaydi.

5. “Nimalar bo‘lishi mumkin?”

Savol: “Agar odamlar uchsa nima bo‘ladi?” Bola fantaziya qiladi.

Baholash:

3 – qiziqarli,

2 – oddiy,

1 – javobsiz.

“Oila rasmi” metodikasi

 **Maqsad:** Bolaning oilasi haqidagi tasavvurlari, oila a‘zolariga bo‘lgan munosabati va hissiy-emotsional kechinmalarini aniqlash.

O‘tkazish tartibi

1. Bola oldiga oq qog‘oz va rangli qalamlar beriladi.

2. Tarbiyachi/psixolog vazifa beradi:

 “Hamma oila a‘zolaringni birgalikda rasm qilib chizib ber.”

3. Bola mustaqil ravishda rasm chizadi.

4. Bola rasm chizib bo‘lgach, undan savollar orqali tushuntirish so‘raladi:
“Bu kim?”

“Nega shunday chizding?”

“O‘zingni qayerda chizding?”

“Kimni yoningda chizding?”

 Baholash mezonlari (1–2–3 ball)

1. Oila a‘zolarining to‘liq tasvirlanishi

3 ball – hamma oila a‘zolari chizilgan (ota, ona, bola va boshqalar).

2 ball – asosiylari chizilgan, lekin kimdir tushib qolgan.

1 ball – faqat o‘zi yoki bitta odam chizilgan.

2. O‘zining rasmda joylashuvi

3 ball – o‘zini oilaning ichida, birgalikda chizgan.

2 ball – o‘zini chetga yoki kichik qilib chizgan.

1 ball – o‘zini umuman chizmagan.

3. Hissiy ifoda (yuz, qo‘l-oyoq, tabassum)

3 ball – yuzlarda tabassum, ijobiy emotsiyalar aks etgan.

2 ball – yuzlar neytral yoki ifodasiz.

1 ball – xafa, g‘azabli, qorong‘i obrazlar.

4. Ranglardan foydalanish

3 ball – yorqin, turli xil ranglardan foydalangan.

2 ball – 2–3 rangdan foydalanilgan.

1 ball – faqat qora, kulrang kabi salbiy ranglar ustun.

5. Oila a‘zolari orasidagi masofa va aloqadorlik

3 ball – hammasi birga, yonma-yon joylashgan.

2 ball – ba‘zilari yonma-yon, ba‘zilari uzoqda.

1 ball – odamlar orasida katta masofa, aloqasiz chizilgan.

✓ **Yakuniy tahlil:**

Ballar yig'indisi orqali bolaning oilaga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

13–15 ball – bolaning oilasi bilan iliq, ijobiy emotsional aloqasi bor.

8–12 ball – o'rtacha darajada, ayrim muammolar bo'lishi mumkin.

5–7 ball – bolaning oilaviy munosabatlarida salbiy hissiyotlar bor, chuqurroq suhbat talab qilinadi.

"Kimga nima etishmayapti?" metodikasi

Ushbu metodika 3–4 yoshli bolalar tafakkurini o'rganish uchun qo'llaniladi.

Metodikani o'tkazish. Avval bolaga bir necha rasm ko'rsatiladi. Keyin tasvirlangan rasmlarda nimadir etishmasligi so'raladi va , bolalarga berilgan narsalar orasidan etishmayotganlarini topish zarurligi tushuntiriladi. Bolaning vazifasi - rasmlardagi bolalarga etishmayotgan narsalarni berilgan narsalar qatoridan topish.



Natijalarni bagolash:

10 – ball – vazifa 30 soniyadan kam vaqtda bazharildi.

8 – 9 ball – vazifa 31 – 49 soniyada bazharildi.

6 – 7 ball – vazifa 50 – 69 soniyada bazharildi.

4 – 5 ball – vazifa 70 – 89 soniyada bazharildi.

2 – 3 ball – vazifa 90 – 109 soniyada bazharildi.

0 – 1 ball – vazifa 110 soniyadan ko'prok vaqtda bajarildi.

Tafakkurning rivojlanish darajasi:

10 – juda yukori

8 – 9 – yukori

4 – 7 – o'rta

2-3 - past

0 – 1 – juda past.

Metodika manbasi: Немов Р.С. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – Кн. 3. Психодиагностика. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики. 104 – 106 бетлар.

"Belgilarni qo'y" metodikasi


Mazkur metodika maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining ko'chuvchanligi va taqsimlanuvchanligini tashxis qilishga qo'llanilishi mumkin.

Metodika material: 1-rasm ko'rsatilgan jadval.

Metodikaning o'tkazish vaqti: 2 daqiqa.

Metodikaning qo'llanilishi:

Bola jadval yuqorisidagi geometrik shakllar: kvadrat, uchburchak, aylana va rombning ichidagi belgilarni jadvaldagi barcha kvadrat, uchburchak, aylana va romblar ichiga qo'yib chiqishi kerak.



Натижаларни қайта ишлаш қуйидаги формула воситасида амалга оширилади:

$$\text{Дкт} = \frac{0.5 \text{ Шм} - 2.8 \cdot \text{Хм}}{120}$$

Дкт – диққат кўчувчанлиги ва тақсимланганлигининг кўрсаткичи;

Шм – 2 дақиқа ичида кўриб чиқилган ва ичига тегишли белги қўйилган геометрик шакллар миқдори;

Хм – топшириқни бажариш давомида йўл қўйилган хатолар миқдори.

Эслатма: тегишли белгиларнинг тегишли шакл ичига қўйилмагани ёки тегишли шакл ичига умуман белги қўйилмагани хато бўлиб ҳисобланади.

Натижаларни баҳолаш:

10 – балл – Дкт 1.00 дан катта – жуда юқори

8 – 9 балл – Дкт 0.75 дан 1.00 гача – юқори

6 – 7 балл – Дкт 0.50 дан 0.75 гача – ўрта

4 – 5 балл – Дкт 0.25 дан 0.50 гача – паст

0 – 3 балл – Дкт 0.00 дан 0.25 гача – жуда паст.

Методика манбаси: Немов Р.С. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – Кн. 3. Психодиагностика. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики. 79 – 81 бетлар.

“Zina” metodikasi: 5-7 yoshli bolalar uchun

Maqsadlar

Bolalarning guruhdagi ijtimoiy mavqeini (liderlik, izolyatsiya, qabul qilinish) aniqlash.

O‘zini-o‘zi baholash darajasini va boshqalar bilan shaxslar-aro munosabatlarni tahlil qilish.

Bolaning guruhdagi hissiy holatini (qulaylik, xavotir, ishonch) aniqlash.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Metodika bosqichlari

“Zina” testi individual yoki kichik guruh shaklida o‘tkaziladi. Davomiyligi: 15-25 daqiqa. Test 5-7 yoshli bolalarning tushunish darajasiga moslashtirilgan bo‘lib, o‘yin elementlarini o‘z ichiga oladi. Quyida metodikaning asosiy bosqichlari keltirilgan:

1. Tayyorgarlik bosqichi (5 daqiqa)

Maqsad: Bolani test jarayoniga tayyorlash, ishonchli va qulay muhit yaratish.

Jarayon:

Tarbiyachi yoki psixolog bola bilan do‘stona suhbat o‘tkazadi (masalan, “Bugun qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz, tayyormisan?”).

Testning maqsadi oddiy tilda tushuntiriladi: “Bir zinapoya tasavvur qil, unda guruhdagi do‘stlaring turadi. Sen ularni qayerga joylashtirasan?”

Jihozlar:

A4 qog‘ozga chizilgan zinapoya (5-7 pog‘ona, yuqoridan pastgacha raqamlangan).

Bolalar guruhining ismlari yozilgan kartochkalar yoki kichik figuralar (masalan, qo‘g‘irchoqlar).

Rangli qalmlar yoki stikerlar (bolaning tanlovi uchun).

Eslatma: Bolani qulay his qilishi uchun majburlashdan saqlanib. Test o‘yin shaklida taqdim etiladi.

2. Asosiy bosqich: Zinapoyaga joylashtirish (10-15 daqiqa)

Vazifa: Boladan guruhdagi tengdoshlarini (va o'zini) zinapoyaning pog'onalariga joylashtirish so'raladi. Yuqori pog'ona eng muhim yoki eng yaqin do'stlar uchun, pastki pog'onalar esa kamroq yaqinlar uchun ishlatiladi.

Ko'rsatma: "Bu zinapoyada sening guruhdagi do'stlaring turadi. Kimni eng yuqoriga qo'yasan? O'zingni qayerga qo'yasan? Kim pastda bo'ladi?"

Jarayon:

Bola guruhdagi har bir tengdoshining ismini (yoki kartochkasini) zinapoyaga joylashtiradi.

O'zini qayerga qo'yishini alohida so'raladi: "Sen o'zingni qaysi pog'onaga qo'yasan?"

Tarbiyachi bolaning harakatlarini (qaror qabul qilishdagi ikkilanish, ishonchsizlik) kuzatadi.

Agar bola savollar bersa, neytral javob beriladi: "O'zing xohlagan joyga qo'y."

Eslatma: Bolaning tanlovini tanqid qilmaslik kerak, jarayon o'yin sifatida davom ettiriladi.

3. Muhokama bosqichi (5-10 daqiqa)

Maqsad: Bolaning tanlovlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish va hissiy holatini tushunish.

Jarayon:

Bola bilan zinapoyadagi joylashtirish haqida suhbatlashiladi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

"Nega bu do'stingni yuqoriga qo'yding?"

"O'zingni bu pog'onaga qo'yding, nega shunday qilding?"

"Pastdagi do'stlaring bilan ko'p o'ynaysanmi?"

Bolaning hikoyasi diqqat bilan tinglanadi, uning hissiy holati (quvonch, xavotir, uyatchanlik) kuzatiladi.

Eslatma: Savollar neytral va qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi kerak, bolani noqulay holatga tushirmaslik lozim.

Baholash mezonlari

Zinapoyadagi joylashtirish quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilinadi:

1. O'zini joylashtirish:

Yuqori pog'onalar (1-2): Yuqori o'zini-o'zi baholash, guruhda ishonchli his qilish.

O'rta pog'onalar (3-4): Muvozanatli o'zini idrok etish, guruhda qulaylik.

Pastki pog'onalar (5-7) yoki o'zini joylashtirmaslik: Past o'zini-o'zi baholash, izolyatsiya yoki ijtimoiy xavotir.

2. Tengdoshlarni joylashtirish:

Yaqin do'stlar yuqori pog'onalarda: Ijobiy shaxslar-aro munosabatlar.

Ko'p bolalar pastki pog'onalarda: Guruhda qabul qilinmaslik yoki ijtimoiy muloqot muammolari.

Muayyan bolalarni doimiy ravishda pastga joylashtirish: Kelishmovchilik yoki salbiy munosabatlar.

3. Hissiy ifoda:

Suhbatdagi ijobiy his-tuyg'ular (quvonch, ishonch): Guruhda qulaylik.

Xavotir, ikkilanish yoki suhbatdan qochish: Ijtimoiy muammolar yoki past ishonch.

4. Tanlovning barqarorligi:

Agar test bir necha marta takrorlansa, bolaning tanlovlari barqarorligi (do'stlarning bir xil pog'onalariga joylashishi) tahlil qilinadi.

Tahlil va talqin

Ijobiy belgilar:

Bola o'zini yuqori yoki o'rta pog'onalariga joylashtirgan, ko'p do'stlarini yuqoriga qo'ygan.

Suhbatda ijobiy his-tuyg'ular (masalan, "Bu mening eng yaqin do'stim!") va ishonch seziladi.

E'tibor talab qiluvchi belgilar:

O'zini pastki pog'onaga yoki umuman joylashtirmagan: Past o'zini-o'zi baholash yoki guruhda o'zini qabul qilinmagan his qilish.

Ko'p bolalarni pastki pog'onalariga joylashtirish: Ijtimoiy izolyatsiya yoki muloqot muammolari.

Suhbatda xavotir, uyatchanlik yoki savollarga javob bermaslik.

Eslatmalar

O'yin shakli: Test bolalar uchun qiziqarli va o'yin sifatida taqdim etilishi kerak (masalan, "Zinapoya o'yini" deb nomlanadi).

Xavfsizlik va qulaylik: Test tinch, shovqinsiz muhitda o'tkaziladi. Bolani majburlash yoki tanqid qilish mumkin emas.

Maxfiylik: Test natijalari faqat tarbiyachi yoki psixolog tomonidan tahlil qilinadi. Ota-onalarga umumiy tavsiyalar shaklida taqdim etiladi.

Qo'shimcha tahlil: Agar muammoli belgilar aniqlansa (masalan, izolyatsiya), bola bilan qo'shimcha suhbatlar yoki guruh o'yinlari orqali ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Yosh xususiyatlari: 5 yoshli bolalar uchun oddiyroq zinapoya (3-5 pog'ona), 7 yoshlilar uchun esa ko'proq pog'ona (5-7) ishlatilishi mumkin.

Jihozlar

A4 qog'ozga chizilgan zinapoya (5-7 pog'ona, raqamlangan).

Guruhdagi bolalarning ismlari yozilgan kartochkalar yoki kichik figuralar.

Rangli qalmlar, stikerlar yoki yopishtiruvchi lenta (kartochkalarni joylashtirish uchun).

Tinch muhit (stol, stul, shovqinsiz xona).

Natijalar va foydalanish

Test natijalari bolaning guruhdagi ijtimoiy mavqeini va shaxslar-aro munosabatlarni aniqlashda yordam beradi.

Natijalar tarbiyachilar va psixologlar tomonidan bolaning ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi (masalan, guruhdagi hamkorlikka yo'naltirilgan o'yinlarni ko'paytirish).

Ota-onalarga umumiy tavsiyalar beriladi (masalan, bolani guruh faoliyatlariga jalb qilish, do'stlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash).

Testni har 3-6 oyda takrorlash orqali bolaning ijtimoiy dinamikasidagi o'zgarishlar kuzatiladi.